biy rivojlanish ehtiyojlarini aniq belgilash va individual rivojlanish yo‘nalishini shakllantirish imkonini beradi.

Metakognitiv yondashuv asosidagi tahlillar shuni ko‘rsatdiki, pedagogning kasbiy faoliyatini samarali boshqarishi rejalashtirish, monitoring, nazorat, baholash va korreksiya jarayonlarining izchil amalga oshirilishiga bog‘liq. Ushbu jarayonlarning uzviyligi o‘qituvchiga nafaqat mavjud faoliyat natijalarini baholash, balki kelgusidagi pedagogik faoliyatini oldindan loyihalashtirish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari pedagogning kasbiy rivojlanishi o‘z-o‘zini anglash, pedagogik refleksiya, metakognitiv boshqaruv, dars monitoringi va kasbiy hamkorlikning uzviy birligi asosida samarali tashkil etilishini ko‘rsatdi. O‘qituvchining o‘z faoliyatini muntazam tahlil qilishi va baholashi individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini shakllantirish uchun muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, zamonaviy kasbiy taraqqiyotda jamoaviy rejalashtirish, o‘zaro tajriba almashish va uzluksiz refleksiv faoliyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Takliflar:

1. Pedagoglarning o‘z-o‘zini baholash va refleksiv tahlil qilish ko‘nikmalarini muntazam rivojlantirish.
2. Dars jarayonida monitoring va metakognitiv boshqaruv mexanizmlaridan tizimli foydalanish.
3. O‘qituvchilar o‘rtasida o‘zaro dars kuzatuvi, tajriba almashish va kasbiy hamkorlikni kuchaytirish.
4. Har bir pedagog uchun individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini ishlab chiqish va muntazam yangilab borish.
5. Kasbiy rivojlanish jarayonini uzluksiz malaka oshirish va refleksiv treninglar bilan qo‘llab-quvvatlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). OECD. Teachers for the 21st Century: Using Evaluation to Improve Teaching [Electronic resource] / OECD. – Paris: OECD Publishing, 2013, 128 p. URL: https://doi.org/10.1787/9789264193864-en.

(2). Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action / D.A. Schön. New York, Basic Books, 1983, 384 p.

(3). Day C. Developing Teachers. The Challenges of Lifelong Learning. C.Day. London: Falmer Press, 1999. – 240 p.

(4). Vangrieken K. Teacher collaboration: A systematic review. K.Vangrieken, F.Dochy, E.Raes, E.Kyndt // Educational Research Review. 2015, vol. 15, p. 17–40.

(5). Pollard A. Reflective Teaching in Schools. A.Pollard. 4th ed. London, Bloomsbury Academic, 2014, 600 p.

(6). Kyriacou C. Effective Teaching in Schools. Theory and Practice. C.Kyriacou. 3rd ed. Cheltenham: Nelson Thornes, 2009, 168 p.

(7). Black P. Developing the theory of formative assessment. P.Black, D.Wiliam. Educational Assessment, Evaluation and Accountability. 2009, vol. 21, № 1, p. 5–31.

(8). Guskey T.R. Evaluating Professional Development. Thousand Oaks, CA: Corwin Press, 2000, 336 p.

Yunusova Xusnora Shuxrat qizi (Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi doktoranti, p.f.f.d., (PhD) dotsent v.b.; ahmadjon220292@gmail.com; ORCID iD: 0009-0009-5179-9362)

OLIY TA’LIMDA O‘QITUVCHILARNING INKLUZIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA UNIVERSAL DESIGN FOR LEARNING (UDL) MODELINING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchilarning inkluziv kompetensiyasini rivojlantirishda Universal Design for Learning (UDL) modelining pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda UDL modelining asosiy tamoyillari – ta’lim jarayoniga jalb etishning ko‘p usullari, o‘quv materiallarini taqdim etishning turli shakllari hamda bilim va ko‘nikmalarni ifodalashning muqobil vositalari inkluziv ta’lim nuqtayi nazaridan yoritilgan. Ilmiy manbalar, xalqaro tajribalar va normativ-huquqiy hujjatlar asosida UDL yondashuvining pedagoglarning kasbiy faoliyatini takomillashtirish, ta’limdagi mavjud to‘siqlarni bartaraf etish, individual ehtiyojlarni hisobga olish hamda barcha talabalar uchun teng va qulay ta’lim muhitini yaratishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari UDL modelini oliy ta’lim amaliyotiga integratsiya qilish inklyuziv ta’lim samaradorligini oshirish va pedagoglarning inkluziv kompetensiyasini rivojlantirishning muhim omili ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so'zlar: *inkluziv ta'lim, inkluziv kompetensiya, Universal Design for Learning (UDL), oliy ta'lim, pedagogik imkoniyatlar, ta'limdagi to'siqlar, moslashuvchan ta'lim muhiti, teng imkoniyatlar, o'qituvchi kompetensiyasi, inkluziv pedagogika.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ МОДЕЛИ УНИВЕРСАЛЬНОГО ДИЗАЙНА ОБУЧЕНИЯ (UDL) В РАЗВИТИИ ИНКЛЮЗИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ВЫСШЕЙ ШКОЛЫ

Аннотация. *В данной статье проанализированы педагогические возможности модели Universal Design for Learning (UDL) в развитии инклюзивной компетентности преподавателей высших образовательных учреждений. Рассмотрены основные принципы модели UDL, включающие разнообразные способы вовлечения обучающихся в образовательный процесс, различные формы представления учебного материала и альтернативные способы демонстрации знаний и навыков с позиций инклюзивного образования. На основе анализа научной литературы, международного опыта и нормативно-правовых документов обоснована значимость подхода UDL в совершенствовании профессиональной деятельности преподавателей, устранении образовательных барьеров, учёте индивидуальных потребностей обучающихся и создании равных возможностей для всех студентов. Результаты исследования показывают, что интеграция модели UDL в практику высшего образования является важным фактором повышения эффективности инклюзивного образования и развития инклюзивной компетентности преподавателей.*

Ключевые слова: *инклюзивное образование, инклюзивная компетентность, Universal Design for Learning (UDL), высшее образование, педагогические возможности, образовательные барьеры, гибкая образовательная среда, равные возможности, компетентность преподавателя, инклюзивная педагогика.*

PEDAGOGICAL POTENTIAL OF THE UNIVERSAL DESIGN FOR LEARNING (UDL) MODEL IN DEVELOPING INCLUSIVE COMPETENCE AMONG HIGHER EDUCATION TEACHERS

Annotation. *This article analyzes the pedagogical potential of the Universal Design for Learning (UDL) model in developing inclusive competence among higher education teachers. The study examines the core principles of UDL, including multiple means of engagement, representation, and expression, and highlights their role in ensuring effective inclusive education. Based on a review of scientific literature, international practices, and regulatory documents, the study substantiates the importance of the UDL approach in enhancing teachers' professional competence, reducing educational barriers, addressing diverse learner needs, and creating equal learning opportunities for all students. The findings indicate that integrating the UDL model into higher education practice is a significant factor in improving the effectiveness of inclusive education and fostering the development of teachers' inclusive competence.*

Keywords: *inclusive education, inclusive competence, Universal Design for Learning (UDL), higher education, pedagogical potential, educational barriers, flexible learning environment, equal opportunities, teacher competence, inclusive pedagogy*

Kirish. So'nggi yillarda dunyo ta'lim tizimida inkluziv ta'limni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Inkluziv ta'lim barcha ta'lim oluvchilarning, jumladan, nogironligi bo'lgan va alohida ta'lim ehtiyojlariga ega shaxslarning teng huquq va imkoniyatlar asosida sifatli ta'lim olishlarini ta'minlashga qaratilgan pedagogik va ijtimoiy yondashuv hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasida ta'lim olish har bir insonning ajralmas huquqi sifatida e'tirof etilib, davlatlardan inkluziv ta'lim tizimini barcha bosqichlarda joriy etish talab etiladi. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida inkluziv muhitni yaratish va uni samarali boshqarish zamo-naviy pedagogikaning dolzarb vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Oliy ta'lim tizimida inkluziv ta'limning muvaffaqiyati, ko'p jihatdan, pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi va inkluziv kompetensiyasiga bog'liq. Inkluziv kompetensiya o'qituvchining turli ehtiyoj va imkoniyatlarga ega talabalar bilan samarali ishlash, moslashtirilgan ta'lim strategiyalarini qo'llash, teng imkoniyatlarni ta'minlash hamda ta'lim jarayonidagi mavjud to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan bilim, ko'nikma va qadriyatlar majmuasini o'z ichiga oladi. Zamonaviy oliy ta'lim auditoriyalarida talabalarning kognitiv, jismoniy, ijtimoiy va psixologik xususiyatlari jihatidan xilma-xilligi ortib borayotganligi o'qituvchilardan yangi pedagogik yondashuvlarni qo'llashni talab etmoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, an'anaviy ta'lim metodlari barcha talabalarning ehtiyojlarini qamrab olishda yetarli samara bermaydi. Ta'limni "o'rtacha talaba" modeliga asoslab tashkil etish ayrim talabalarning ta'lim jarayonidan chetda qolishiga sabab bo'ladi. Natijada ta'lim olishdagi tengsizliklar kuchayadi

hamda inkluzivlik tamoyillari to‘liq ta’minlanmaydi. Shu nuqtayi nazardan, ta’lim jarayonini moslashuvchan tashkil etishga imkon beruvchi Universal Design for Learning (UDL) modeli alohida ahamiyat kasb etadi.[1]

Universal Design for Learning (UDL) konsepsiyasi dastlab CAST (Center for Applied Special Technology) tadqiqotchilari tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u ta’lim jarayonini barcha talabalar uchun qulay va ochiq shaklda loyihalashga qaratilgan. Mazkur model ta’lim oluvchilarning individual farqlarini hisobga olish, o‘quv materiallarini turli shakllarda taqdim etish, talabalarning o‘quv faoliyatidagi ishtirokini rag‘batlantirish hamda bilimlarni namoyon etishning muqobil usullarini qo‘llashga asoslanadi. UDL yondashuvi orqali o‘qituvchi nafaqat ta’lim mazmunini moslashtiradi, balki talabalarning ta’lim jarayonidagi faolligi va mustaqilligini ham qo‘llab-quvvatlaydi.

Bugungi kunda AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya va Yevropaning qator mamlakatlarida UDL modeli inkluziv ta’limni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida keng qo‘llanilmoqda. Xususan, University of East London hamda Rix Inclusive Research Institute tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda UDL tamoyillarini oliy ta’lim amaliyotiga integratsiya qilish pedagoglarning inklyuziv kompetensiyasini rivojlantirish, talabalarning akademik faolligini oshirish va ta’lim sifati ko‘rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslangan.[2]

Mazkur tadqiqotning maqsadi oliy ta’limda o‘qituvchilarning inklyuziv kompetensiyasini rivojlantirishda Universal Design for Learning (UDL) modelining pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilish hamda uning inkluziv ta’lim samaradorligini ta’minlashdagi ahamiyatini aniqlashdan iborat. Tadqiqot doirasida UDL modelining nazariy asoslari, asosiy tamoyillari va o‘qituvchilarning inklyuziv kompetensiyasini rivojlantirishdagi o‘rni ilmiy manbalar hamda xalqaro tajribalar asosida tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda oliy ta’lim o‘qituvchilarining inkluziv kompetensiyasini rivojlantirishda Universal Design for Learning (UDL) modelining pedagogik imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan nazariy-pedagogik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida inkluziv ta’lim va UDL konsepsiyasiga oid xalqaro hamda mahalliy ilmiy adabiyotlar, me’yoriy-huquqiy hujjatlar va ilmiy hisobotlar tahlil qilindi.

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv hamda inklyuziv ta’limning zamonaviy tamoyillari tashkil etdi. Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi: Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish metodi–inkluziv ta’lim, pedagogik kompetensiya va Universal Design for Learning konsepsiyalariga oid ilmiy manbalarni o‘rganish va umumlashtirish maqsadida qo‘llanildi.

Qiyosiy-pedagogik tahlil metodi – UDL modelining xalqaro tajribadagi qo‘llanilishi hamda uning oliy ta’lim amaliyotidagi pedagogik imkoniyatlarini taqqoslash uchun foydalanildi.[3]

Kontent-tahlil metodi – UNESCO, WHO, CAST, BMT Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi (UNCRPD), University of East London va Rix Inclusive Research Institute tomonidan e’lon qilingan ilmiy manbalar hamda metodik tavsiyalar mazmunini tahlil qilishda qo‘llanildi.[4]

Mantiqiy-tahliliy metod – olingan ma’lumotlarni tizimlashtirish, umumlashtirish va ilmiy xulosalar chiqarishda foydalanildi.

Tadqiqot obyekti sifatida oliy ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lim jarayoni, predmeti sifatida esa o‘qituvchilarning inklyuziv kompetensiyasini rivojlantirishda UDL modelining pedagogik imkoniyatlari belgilandi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish jarayonida UDL modelining asosiy tamoyillari – jalb etish (Engagement), axborotni taqdim etishning ko‘p usullari (Representation) hamda harakat va ifodalashning ko‘p usullari (Action and Expression) o‘qituvchilarning inklyuziv kompetensiyasini rivojlantirish mezonlari bilan o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganildi. Shu asosda UDL modelining oliy ta’limda inkluziv ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi pedagogik imkoniyatlari aniqlandi.

---

[1] Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya (Convention on the Rights of Persons with Disabilities). Nyu-York, United Nations, 2006, 37-bet.

[2] University of East London. Inclusive Education and Universal Design for Learning in Higher Education. London, UEL Press, 2022, 85 p.

[3] CAST. Universal Design for Learning Guidelines Version 3.0. Wakefield, MA: CAST Professional Publishing, 2024, 45 p.

[4] UNESCO. Global Education Monitoring Report 2020: Inclusion and Education – All Means All. Paris, UNESCO Publishing, 2020, 512 p.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Universal Design for Learning (UDL) modeli oliy ta’lim o‘qituvchilarining inkluziv kompetensiyasini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Mazkur model ta’lim jarayonini barcha talabalar uchun ochiq, moslashuvchan va qulay tashkil etishga xizmat qiladi hamda o‘qituvchilarning inkluziv faoliyatini takomillashtirish imkonini yaratadi.

Tahlillar natijasida UDL modelining uch asosiy tamoyili o‘qituvchilarning inklyuziv kompetensiyasi tarkibiy qismlari bilan bevosita bog‘liqligi aniqlandi. Xususan, “Engagement” (jalb etish) tamoyili o‘qituvchilarning kommunikativ va motivatsion kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu tamoyil asosida pedagoglar talabalarni o‘quv jarayoniga faol jalb etish, ularning qiziqish va ehtiyojlarini hisobga olish hamda ijobiy psixologik muhit yaratish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

“Representation” (taqdim etish) tamoyili esa o‘qituvchilarning metodik kompetensiyasini rivojlantiradi. Mazkur tamoyil asosida o‘quv materiallari matn, audio, video, grafik va interaktiv vositalar orqali turli shakllarda taqdim etiladi. Natijada turli ehtiyoj va imkoniyatlarga ega talabalarning o‘quv materiallarini o‘zlashtirish darajasi ortadi hamda ta’limdagi mavjud to‘siqlar kamayadi.

“Action and Expression” (harakat va ifodalash) tamoyili talabalarga o‘z bilim va ko‘nikmalarini turli usullarda namoyish etish imkonini beradi. Ushbu yondashuv o‘qituvchilardan baholashning moslashuvchan shakllarini qo‘llashni talab etadi. Natijada talabalarning individual imkoniyatlari hisobga olinadi va baholash jarayonining adolatliligi ta’minlanadi.

Tadqiqot davomida UDL modelining inkluziv kompetensiyani rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari tizimlashtirildi (1-jadval).

1-jadval

UDL tamoyili	Mazmuni	Rivojlantiradigan kompetensiyalar
Engagement (jalb etish)	Talabalarni o‘quv faoliyatiga qiziqtirish va motivatsiyalash	Kommunikativ, motivatsion va ijtimoiy kompetensiyalar
Representation (taqdim etish)	Axborotni turli shakllarda yetkazish	Metodik va axborot-kommunikatsion kompetensiyalar
Action and Expression (ifodalash)	Bilimlarni namoyon etishning muqobil usullarini yaratish	Diagnostik, baholash va refleksiv kompetensiyalar

Olingan natijalar xalqaro tadqiqotlar bilan hamohang ekanligini ko‘rsatdi. Xususan, CAST tomonidan ishlab chiqilgan UDL yo‘riqnomalari hamda Meyer, Rose va Gordonlarning ilmiy qarashlarida ta’lim jarayonini moslashuvchan tashkil etish barcha talabalar uchun teng imkoniyatlar yaratishning muhim omili sifatida e’tirof etiladi. University of East London hamda Rix Inclusive Research Institute tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalari ham UDL tamoyillarini amaliyotga joriy etish pedagoglarning inklyuziv kompetensiyasini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Muhokama natijalari shuni ko‘rsatdiki, UDL modeli inklyuziv ta’limni tashkil etishda faqat metodik vosita emas, balki pedagogik faoliyatni qayta loyihalashga xizmat qiluvchi kompleks yondashuv hisoblanadi. Mazkur model o‘qituvchilarga talabalar o‘rtasidagi individual farqlarni hisobga olish, ta’lim jarayonidagi mavjud to‘siqlarni oldindan aniqlash va bartaraf etish hamda barcha talabalar uchun qulay o‘quv muhitini yaratish imkonini beradi.[1]

Shunday qilib, tadqiqot natijalari UDL modelining oliy ta’lim o‘qituvchilarining inklyuziv kompetensiyasini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari yuqori ekanligini hamda uni oliy ta’lim amaliyotiga keng joriy etish inklyuziv ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatdi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari oliy ta’lim o‘qituvchilarining inklyuziv kompetensiyasini rivojlantirishda Universal Design for Learning (UDL) modelining muhim pedagogik imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatdi. UDL yondashuvi ta’lim jarayonini barcha talabalarning individual ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etishga xizmat qiladi hamda inkluziv ta’limning asosiy tamoyillari – teng imkoniyatlar, ishtirok, erkin foydalanish va to‘siqlarni bartaraf etishni amaliyotga samarali tatbiq etish imkonini beradi.

Tahlillar natijasida UDL modelining asosiy tamoyillari – jalb etish (Engagement), taqdim etish (Representation) hamda harakat va ifodalash (Action and Expression) o‘qituvchilarning kommunikativ, metodik, diagnostik va refleksiv kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi. Mazkur model asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarning faolligini oshirish, ta’limdagi mavjud to‘siqlarni kamay-

[1] International Labour Organization. Disability and Employment: Global Trends Report. Geneva: ILO, 2020, 118 p.

tirish va o‘quv natijalarini yaxshilash imkonini beradi. Shuningdek, tadqiqot davomida UDL yondashuvi oliy ta’lim muassasalarida inkluziv muhitni shakllantirishning samarali vositasi ekanligi asoslandi. U pedagoglarga ta’lim mazmunini moslashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash hamda barcha talabalar uchun qulay o‘quv sharoitlarini yaratish imkoniyatini beradi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

–oliy ta’lim muassasalarida pedagoglarning inkluziv kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan malaka oshirish dasturlariga UDL tamoyillarini kiritish;

–bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida UDL texnologiyalariga oid maxsus modullarni joriy etish;

–ta’lim jarayonida o‘quv materiallarini turli formatlarda taqdim etish hamda baholashning moslashuvchan shakllaridan foydalanishni kengaytirish;

–raqamli ta’lim platformalarini UDL tamoyillari asosida takomillashtirish;

–oliy ta’lim muassasalarida inkluziv ta’lim samaradorligini baholashda UDL mezonlaridan foydalanish.

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, Universal Design for Learning modeli oliy ta’limda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, pedagoglarning inkluziv kompetensiyasini takomillashtirish hamda barcha talabalar uchun teng va sifatli ta’lim imkoniyatlarini yaratishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya (Convention on the Rights of Persons with Disabilities). Nyu-York, United Nations, 2006, 37-bet.

(2). World Health Organization. World Report on Disability. Geneva: WHO Press, 2021, 325 p.

(3). UNESCO. Global Education Monitoring Report 2020: Inclusion and Education – All Means All. Paris, UNESCO Publishing, 2020, 512 p.

(4). CAST. Universal Design for Learning Guidelines Version 3.0. Wakefield, MA: CAST Professional Publishing, 2024, 45 p.

(5). Meyer A., Rose D.H., Gordon D. Universal Design for Learning: Theory and Practice. Wakefield, MA: CAST Professional Publishing, 2014, 234 p.

(6). Rose D.H., Meyer A. Teaching Every Student in the Digital Age: Universal Design for Learning. Alexandria, VA: ASCD, 2002, 220 p.

(7). Florian L. What Counts as Evidence of Inclusive Education? European Journal of Special Needs Education. 2014, vol. 29, № 3, p. 286–294.

(8). Ainscow M. Developing Inclusive Education Systems: What Are the Levers for Change? Journal of Educational Change. 2005, vol. 6, № 2, p. 109–124.

(9). Booth T., Ainscow M. Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools. Bristol, Centre for Studies on Inclusive Education, 2016, 190 p.

(10). International Labour Organization. Disability and Employment: Global Trends Report. Geneva: ILO, 2020, 118 p.

(11). World Bank. Disability Inclusion Overview. Washington DC: World Bank Publications, 2021, 74 p.

(12). University of East London. Inclusive Education and Universal Design for Learning in Higher Education. – London, UEL Press, 2022, 85 p.

(13). Rix J., Sheehy K., Fletcher-Campbell F., Crisp M., Harper A. Exploring Inclusive Pedagogy and Learning. London, Routledge, 2020, 256 p.

Sulaymonova Dilora Abdurahmonovna (Buxoro davlat Tibbiyot instituti “O‘zbek tili va adabiyoti, rus va ingliz tili” kafedrasi assistenti; E-mail: dildora_sulaymonova@bsmi.uz)

BO‘LAJAK SHIFOKORLARDA EMPATIK KLINIK MULOQOT KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA DISKURSIV YONDASHUVNING IMKONIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada bo‘lajak shifokorlarning empatik klinik muloqot ko‘nikmalarini rus tili ta’limida rivojlantirish imkoniyatlari nazariy va diskursiv tahlil hamda pedagogik modellashtirish asosida yoritiladi. To‘rt komponentli tuzilma, mashqlar tizimi, baholash mezonlari va 60 soatlik kurs taklif etiladi. Ushbu metodik yechimlar kasbiy rus tili mashg‘ulotlariga mo‘ljallangan; samaradorlikni tajribada tekshirish kelgusidagi vazifadir.*

Kalit so‘zlar: *klinik empatiya, empatik muloqot, bo‘lajak shifokor, diskursiv yondashuv, rus tili, nutqiy strategiya, refleksiya.*